

**KELAJAK TA'LIM MUASSASALARIDA FORSAYT TEXNOLOGIYASI
ASOSIDA BOSHQARUV STRATEGIYALARI**

Nuriyeva Umida

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutining

„Ta'limda menejment“ ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini rivojlantirishda Forsayt texnologiyalarining ahamiyati yoritiladi. Forsayt metodologiyasi yordamida kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish, strategik rejalashtirish va ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muassasalarida Forsayt texnologiyasini joriy etishning afzalliklari, muammolari va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Forsayt texnologiyasi, strategik boshqaruv, ta'lim muassasalari, innovatsion rivojlanish, kelajak ta'limi, raqamli ta'lim, prognozlash, ta'lim strategiyasi.

XXI asrda ta'lim tizimi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, yangi innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Forsayt texnologiyasi (Foresight) – bu ta'lim muassasalarining uzoq muddatli strategik rivojlanishini rejalashtirishga imkon beruvchi uslubdir. Forsayt metodologiyasi orqali ta'lim sohasida kelajak tendensiyalarini oldindan bashorat qilish va yangi boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Ta'lim sifatini oshirish uchun e'tiborni avvalo tizimga qaratish kerak. Ta'limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o'zgarib borishida.

Boshqaruv -bu tizimni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida uni sifatini ta'minlash, tartibga solish uchun ta'sir etishdir.

Amerika boshqaruvida-tashabbuskorlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, tashkilotchilik, ishchanlik;

Yaponiya boshqaruvda-har bir xodimga g'amxo'rlik, ishlab chiqarishning ijtimoiy xavfsizligi, shakllanish istagi, ichki go'zallik;

Fransiya boshqaruvda-boshqaruv tizimini shakllantirish uchun insoniy madaniyat, yuqori darajadagi aloqadorlik madaniyati, milliy, tarixiy, madaniy an'ana elementlaridan foydalanish.

Menejmentning vazifalari quydagilar:

- boshqaruv hokimiyati va san'ati;

- resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar

tushuniladi.

Shuningdek, Forsayt texnologiyasi – bu kelajakni ilmiy asosda prognozlash hamda istiqboldagi muhim o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradigan yondashuvdir.

Ushbu metod:

1. Ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda uzoq muddatli istiqbolni belgilaydi.
2. Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlaydi va ularni hal etish yo‘llarini tavsiya qiladi.
3. Innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi va ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasiga ko‘maklashadi.

Forsayt texnologiyasi bu murakkab ekotizimlarda moslashuvchanlikni ta’minlaydigan juda mos uslubdir. Ta’limni rejalashtirishda strategik bashoratdan foydalanish siyosatchilar, vazirliklar va moliya agentliklari kabi asosiy manfaatdor tomonlarni kelajak haqidagi umumiy tasavvurni shakllantirish va shu kelajakka birgalikda intilishga jalb qilishga yordam beradi.¹

Ta’limni rejalashtirishda strategik bashoratni qo‘llash orqali ta’lim mutaxassislari rivojlanayotgan tendentsiyalarning zarbasini ushlab turishlari, talabalarni kelajakdagi o‘zgarishlarga tayyorlash uchun innovatsion imkoniyatlarni aniqlashlari va kelajak avlodlarning sog‘lom rivojlanishi va muvaffaqiyatlarini ta’minlashlari mumkin.

Forsayt texnologiyasiga asoslangan boshqaruv strategiyalarini quydagicha bosqichda amalga oshirish mumkin:

1. Ta’lim muassasalarida Forsayt metodlarini joriy etish

Forsayt texnologiyasini joriy etishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Delphi metodi – ekspertlarning kelajak tendensiyalar bo‘yicha fikr-mulohazalarini yig‘ish va umumlashtirish.
 - Senariy tahlili – turli kelajak variantlarini modellashtirish.
 - Yangi texnologiyalarni monitoring qilish – ta’lim tizimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan texnologik o‘zgarishlarni baholash.
2. Forsayt yondashuvi asosida innovatsion strategiyalar ishlab chiqish
 - Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish – masofaviy ta’lim va sun‘iy intellektdan foydalanish.
 - Individuallashtirilgan o‘quv dasturlari – har bir o‘quvchining qobiliyatiga moslashgan ta’lim strategiyalari.
 - Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish – ilg‘or ta’lim modellaridan foydalangan holda strategik hamkorlikni kengaytirish.

¹ Afanasiev V.G. Dastur-maqсадlarni boshqarish; Jamiyatni ilmiy boshqarish; nashr 2 / ed. OK. Naumenko, G.P. Juravleva, V.V. Grigoryev. - M., 1978. - S. 45-87.

Forsayt texnologiyalarining ta'lim boshqaruvidagi qo'llanilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- Strategik rejalashtirish samaradorligi oshadi.
- Ta'lim sifatining barqaror o'sishi ta'minlanadi.
- Innovatsion metodlar va ilg'or texnologiyalar keng qo'llaniladi.
- Raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashadi.

Xulosa qilib aytqanda, Forsayt texnologiyasi asosida boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish kelajak ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va global ta'lim tizimi bilan hamnafas bo'lish imkonini yaratadi. Shuning uchun Forsayt texnologiyalarini keng joriy etish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdeev R.F. Boshqaruv mexanizmi, uning genezisi va tizimni tashkil etuvchi ro'li // Falsafiy fanlar. - 1990. - No 4. - S. 105-113.
2. Afanasiev V.G. Dastur-maqсадlarni boshqarish; Jamiyatni ilmiy boshqarish; nashr 2 / ed. OK. Naumenko, G.P. Juravleva, V.V. Grigoryev. - M., 1978. - S. 45-87.
3. Slaughter, R. (1999). Futures for the Third Millennium: Enabling the Forward View. Routledge.
4. Coates, J. F. (2010). The Future of Foresight: A Review of the Literature. The Futurist, 44(3), 35-42.
5. Voros, J. (2003). A generic foresight process framework. Foresight, 5(3), 10-21.